

Yulduz Asadovna Po'lotova

Buxoro davlat universiteti
pedagogika kafedrası dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)**BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARI INTEGRATSIYASINI TA'MINLASH
METODIKASI**

Maqolada boshlang'ich sinf ona tili va o'qish darslarida axborot resurslar integratsiyasini ta'minlashda o'quvchilarning o'quv predmetlarini o'zlashtirish jarayonida o'quv topshiriqlarini bajarishga tayyorgarlik, topshiriqlarni bajarishga ongli yondashish, o'qish va o'rganishning tizimli xarakter kasb etishi kabi zamonaviy tendensiyalarni uyg'unlashtirgan holda real ta'limiy sharoitlarda qo'llash mexanizmi xususida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: malaka, badiiy asar, kitobxonlik, o'quvchi, nutq, axborot, janr.

**МЕТОДИКА ОБЕСПЕЧЕНИЯ ИНТЕГРАЦИИ УРОКОВ РОДНОГО ЯЗЫКА
НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ**

В статье рассматривается механизм применения в реальных образовательных условиях при обеспечении интеграции информационных ресурсов на уроках родного языка и чтения начальных классов, гармонизации современных тенденций в процессе освоения учащимися учебных предметов, таких как готовность к выполнению учебных заданий, осознанный подход к выполнению заданий, системный характер чтения и обучения.

Ключевые слова: квалификация, художественное произведение, читательская способность, читатель, речь, информация, жанр.

**METHODOLOGY FOR ENSURING THE INTEGRATION OF PRIMARY
SCHOOL NATIVE LANGUAGE LESSONS**

The article examines the mechanism of application in real educational conditions in ensuring the integration of information resources in the lessons of the native language and reading of primary classes, the harmonization of modern trends in the process of mastering academic subjects by students, such as readiness to complete educational tasks, a conscious approach to completing tasks, the systematic nature of reading and learning.

Keywords: qualification, artwork, reading ability, reader, speech, information, Genre.

Har bir davlatning ta'lim sohasida bolalarda nutq o'stirish tizimning asosiy tarkibiy elementi sifatida e'tirof etilgan. O'zbekistonda uzluksiz ta'limning dastlabki bosqichlari – maktabgacha va boshlang'ich ta'lim davrida bolalarda nutqni o'stirish pedagogik jarayonning muhim yo'nalishi etib belgilangan. Global axborotlashuv va innovatsion ta'lim muhitining shakllanishi, inson kapitalini rivojlantirishga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojning ortishi yosh avlodni har tomonlama kamol toptirish, intellektual jihatdan rivojlantirish, bunda nutq imkoniyatlaridan foydalanishni taqozo etadi.

Shaxs nutqini o'stirishda maktabgacha va boshlang'ich ta'lim bosqichlari boshlang'ich davr bo'lishi inobatga olinsa, ularning takomillashtirilishi, "boshlang'ich ta'lim mazmunini to'liq integrallashtirish, mazkur mazmunda ta'lim-tarbiya elementlari uyg'unligini ta'minlashning naqadar dolzarb ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi"[2].

Rus tili izohli lug'atida "integratsiya Yosh avlodning ma'naviy kamolotida qadimdan nutq madaniyatiga alohida ahamiyat berib kelingan. Xususan, Kaykovus o'zining «Qobusnoma» nomli asarida farzandiga qarata shunday deydi: "... Ey farzand, so'zning yuzin va orqasin bilg'il va ularga

rioya qilg'il, har ne so'z desang yuzi bila degil, to suxango'y bo'lg'aysan. Agar so'z aytib, so'zning nechuk ekanin bilmasang, qushga o'xsharsankim, unga to'ti derlar, ul doim so'zlar, ammo so'zning ma'nosin bilmas. ...So'zni bag'oyat ulug' bilg'il, so'z osmondin kelmas va ul xor narsa emasdir. Qay bir so'zniki bilsang, joyini o'tkazmay aytkil, vaqtni zoe qilmagil, yo'q ersa donishga sitam qilg'on bo'lg'aysan. Har so'z desang, rost degil va bema'nilikni da'vo qilguvchi bo'lmag'il" [66; 51-52-b.]. Nutq faqat fikrni ifodalash, axborot almashish, til vositalaridan foydalanish jarayoni yoki uning hosilasigina emas, balki "shaxsning intellektual salohiyatini rivojlantiruvchi asos ham ekanligi psixologik va biologik nuqtayi nazardan isbotlangan" [85; 67-b.]. Shu sababli, yosh avlodda ilk bolalikdan nutqni rivojlantirishga alohida e'tibor beriladi.

" - lotincha "integration" so'zidan olingan bo'lib, "integr" to'liq, yaxlit, bir butun degan ma'nolarni anglatadi. Integratsiya-o'zaro bog'langan holda rivojlantirish, bir butun qilib birlashtirmoq, yaxlit holga keltirmoq ekanligi ta'kidlanadi. Integratsiya turli xil qism va elementlarni bir butunlikka birlashtirish" [3; 245-b.] demakdir.

Axborot (lot. formatio – tushuntirish, bayon etish; lot. informare - tur, shakl, o'qitish; fikrlash, xayol qilish) – faktik ma'lumotlar va ular orasidagi o'zaro bog'liqliklar haqidagi bilimlar majmui. Mehnat faoliyati va xo'jalikda inson tomonidan qo'llaniladigan resurslarning biri hisoblanadi.

"Resurs" tushunchasi tabiiy resurslar tushunchasi bilan bog'liq. Ushbu an'anaga rioya qilishning samarasiga shubha qilish uchun asoslar mavjud. Birinchidan, resurs tushunchasining etimologiyasi. Bu so'z fransuzcha "resurs"dan olingan bo'lib, «ko'tarilish» degan ma'noni anglatadi.

Axborot resurslariga quyidagilar kiradi:

- arxivlar; axborot fondlari; kutubxonalar; ma'lumotlar banklari; internet ma'lumotlari.

Ushbu manbalar tarmog'i keng va milliy ma'lumotlar bazalarida saqlanadigan ma'lumotlarni alohida muassasa va hattoki har bir shaxs tomonidan saqlanadigan ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Pedagog olimlarning fikr mulohazalaridan kelib chiqqan holda, ushbu atama quyidagicha izohlandi: integratsiya – u yoki bu kasb egasiga kerak bo'ladigan tarqoq bilimlar majmuini yaxlit holga keltirish va vaqt me'yorlarini kreativlik asosida sarf etish mahorati. Integrativ yondashuv ta'lim muhitida talabalarning kasbiy kompetentlik va shaxsiy sifat hamda fazilatlar yaxlitligini ta'minlashga hamda ta'limiy-tarbiyaviy maqsad va vazifalariga qulay pedagogik muhit va ta'sirini tashkil etishga qaratilgan yaratuvchanlik va izlanishli-tadqiqotchilik faoliyat hisoblanadi.

Integratsiya quyidagi maqsadli vazifalar yotadigan yo'nalishlarga ajratildi: ko'p predmetlilikni bartaraf qilish, mavzuning (bo'limni, butun kursni) o'rganish vaqtini qisqartirish, takrorlanishlarni bartaraf qilish; ta'lim texnologiyasini o'zgartirish, ta'lim oluvchi shaxsining rivojlanishi uchun nisbatan maqbul sharoit yaratish, ta'lim oluvchilar va pedagoglarning rivojlanishini tezlashtirishni rag'batlash. Integratsiya asosidagi o'quv faoliyat va pedagogik jarayon ta'lim oluvchilar va pedagoglarda yuzaga keladigan real ehtiyojlarni aks ettiradi. Bu ehtiyojlar, o'z navbatida, pedagogik jarayon qatnashchilari tomonidan o'quv materialini o'zlashtirish va bilim berish davomida aniqlangan qarama-qarshiliklardan kelib chiqadi. Ta'limni oqilona, optimal tashkil qilish va olib borish mehnatga ongli munosabatni tarkib toptirib, kasb-hunarga nisbatan qiziqish hissini uyg'otadi. Shuningdek, bo'lajak mutaxassislarni istiqloq g'oyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida mustaqillik g'oyalari, Vatan, oila, tabiatga mehr-muhabbat va insonparvarlik ruhida tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. O'qish metodikasi pedagogika, psixologiya, ona tili, adabiyotshunoslik ma'lumotlariga va keng ko'lamdagi pedagogik tajribalarga tayanadi.

Y.R.Yadrovskaya ta'kidlaganidek, "O'qitishning mohiyati ham o'quvchilarni tushunchalar bilan qurollantirish orqali ta'lim maqsadiga erishishdan iborat. Voqelikdagi narsa va hodisalar to'g'risidagi tushunchalar har bir kishining ongida bolalikdan boshlab to umrining oxirigacha takomillashib boradi. Shu bois o'quvchilarda boshlang'ich sinflardan boshlab adabiy

tushunchalarni shakllantirish – sinfda va sinfdan tashqari o'qish darslarining asosiy vazifalaridan biri" [3; 47-b.].

O'qish darslari o'rganiladigan badiiy asarlarni bir-biridan farqlash, yozuvchining voqealarni aks ettirish mahorati, adabiy qahramonlar atvorini tushunish, obrazlarning xatti-harakatiga o'z munosabatini bildirish, uni baholash, tegishli xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Professorlar K.Qosimova va S.Matchonovlarning o'qish metodikasiga doir ishlarida o'quvchi ta'limning faol ishtirokchisi, «metodik omil» sifatida tilga olinishi bejiz emas. Ularning fikricha, "boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'quvchilarni malakali kitobxon sifatida tarbiyalashda asar tahlili va o'quvchining shaxsiy ijodkorlik qobiliyati alohida ahamiyat kasb etadi" [4; 81]. Bu esa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida she'r, misra, hikoya, masal, topishmoq, maqol, adabiy qahramon, sarlavha, matn, reja kabi dastlabki adabiy tushunchalarni shakllantirishni taqozo etadi. Shu maqsadga qaratilgan adabiy tahlil o'qituvchi va o'quvchining qat'iy reja asosida izchil hamkorlikda izlanishini talab etadi. Busiz o'quvchi dasturda ko'zda tutilgan darajada asarni estetik jihatdan anglash va idrok etishga qodir bo'lmaydi. Tahlilda umumiydan xususiyga, ya'ni asarni tushunishga yordam beruvchi umumiy mazmunni va tafsilotlarni aniqlashga tomon borish lozim. Tahlil boshida asarning janriy xususiyatlarini hisobga olgan holda, beriladigan savollarni o'quvchilarning mavjud tushunchalaridan kelib chiqib izchil va keng qamrovli tarzda qo'yish talab etiladi. Shu asosda o'quvchilarning fikr va hislarini muayyan maqsadga yo'naltirilsa, boshlang'ich ta'limda ko'zlangan natijaga erishish qiyin kechmaydi.

Jumladan, M. P. Voyushina [5] boshlang'ich sinflarda badiiy asar tahlili tamoyillarini quyidagilarga ajratadi va tavsiflaydi:

1. *Maqsadga yo'naltirilgan tamoyil.* Bu tamoyilga ko'ra, darsning asosiy vazifasi asarni to'laqonli idrok qilish, uning g'oyasini tushunishga yo'naltirish maqsadidan kelib chiqib belgilanadi.

2. *O'qilgan asarni yaxlit, izchil, hissiy idrok qilish tamoyili.* Bu tamoyil badiiy asarning birlamchi idrok talablari bilan ichki bog'lanishni va idrok sifatini yaxshilash, shu orqali asarga qaytib uni tahlil qilish ehtiyojini yuzaga keltirishni nazarda tutadi.

3. *Asarni idrok qilishda o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish tamoyili.* Bunda asar tahlilida o'quvchilarning asar mazmunini chuqur anglashlarini ta'minlashda yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, tahlil usullarini tanlash talab etiladi.

4. *Asar tahliliga sharoit yaratish tamoyili.* Bu tamoyilga ko'ra, matn tahlili o'quvchining badiiy matnni tushunish ehtiyojlariga javob berishi kerak.

5. *Asarni ikkinchi marta mustaqil o'qishga bo'lgan ehtiyoj tamoyili.* Bu tamoyil o'quvchilar tahlildan oldin matn mazmunini to'liq anglashlari uchun uni yana bir marta o'qib chiqishlari talab etiladi.

6. *Shakl va mazmunning birligi tamoyili.* Asarda keltirilgan tasvir va uning mazmuni bilan uzviy bog'liq bo'lgan asar shaklini tahlil qilishga yo'naltirilishi kerak bo'lgan savollar va vazifalarning tabiatini belgilaydi.

7. *Badiiy asarning umumiy va janr xususiyatlarini, badiiy o'ziga xosligini hisobga olish tamoyili.* Bu tamoyil tahlilning umumiy yo'nalishi va usulini tanlashda o'zini namoyon qiladi. Adabiyotning turli xil adabiy turlari va janrlari mohiyatan bir-biridan farq qiladi. Shuning uchun bu asarlarni tahlil qilishda bir xil yondashuvlar bo'lishi mumkin emas.

8. *Tahlil usullarini tanlash tamoyili.* Bu tamoyil asarning tahlil usulini tanlab olishni nazarda tutadi: uning barcha elementlari tahlil qilinmaydi, balki ishning g'oyaviy yo'nalishini ochish uchun yetarli mazmun tanlab olinadi.

9. *O'qish malakasini takomillashtirishga qaratilgan tamoyil.* Bu tamoyil ilk adabiy ta'limga xos bo'lib, o'qish malakasi o'quvchining shaxsiy maqsadiga aylantirilgandagina yaxshilanadi. Qaysi o'quvchi o'z xohishi bilan ko'p o'qisa, natija yaxshi bo'ladi.

10. *O'quvchilarning kitobxonlik ko'nikma-malakalarini rivojlan-tirish tamoyili.* Unga ko'ra, "sinfdagi badiiy asar tahlili o'quvchilarning nafaqat o'rganilayotgan asar g'oyasini

o'zlashtirishiga, balki ularning adabiy rivojlanishiga, ularda dastlabki adabiy tushuncha va kitobxonlik malakalarini shakllantirishga ham yordam berdi" [5; 288].

O'qishning natijasi asar mazmunini anglash. Bu natija nafaqat o'qish texnikasida, balki o'quvchining fikrlash darajasini oshirish, umumlashtirish qobiliyatini shakllantirish, nutqini rivojlantirish darajasi – lug'atining boyligi, so'z ma'nosini aniq tushunishi; o'qiladigan matnning xususiyatlari anglashi, hayot haqidagi mavjud bilim, shuningdek, tajribasini ko'rsata olishi bilan belgilanadi.

Ushbu omillarga qarab, matnni tushunishning quyidagicha muayyan darajasiga erishiladi: *asar mazmunini anglash darajasi* – matnning alohida tarkibiy qismlarini tanlash, uzviy bog'lash, umumlashtirish, voqealar rivoji va tasvir mazmunini tushunish;

fikrlash darajasi - muallifning maqsadini, asarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini tushunish, qahramonlarning o'zaro munosabatlarini aniqlash, ularni baholash. xulosa chiqarish, keltirilgan dalillarni izohlash, hayot tajribasi bilan o'zaro bog'lash.

Boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan o'quv fanlari mazmunining tahlili ayon bo'ldiki, turli o'quv fanlarining mazmunida o'zaro yaqin va o'xshash tushunchalar bayon qilingan bo'lib, o'quvchining vaqti va kuchini tejash, o'quv dasturlari va darsliklar mazmunini boyitish asosida ularga sarflanadigan mablag'ni asosli kamaytirish, o'quv rejasini optimallashtirish, shu asosda ta'lim mazmunini integratsiyalash, turli dastur va darsliklarda takror berilgan mavzular va tushunchalarni unifikatsiyalashga ehtiyoj tug'ilmoqda.

Ta'lim muassasalarida ona tili fanini o'qitishning asosiy maqsadi – "kitobxonlik madaniyati shakllangan, o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda to'g'ri, ravon bayon qiladigan, mustaqil va ijodiy fikrlaydigan, o'zgalar fikrini anglab, o'z munosabatini bildiradigan – muloqot va nutq madaniyati rivojlangan barkamol shaxsni tarbiyalashdan iborat"[5;13].

Ta'limga kompetensiyaviy yondashuv talabi o'quvchilarda ilmga chanqoqlik, izlanuvchanlik, yangilik yaratishga intilish xislatlarini tarbiyalaydi.

"O'qish kitobi" darsliklarida matnga oid rasmlar asosida kichik hikoya tuzish yoki yozish o'quvchilar ijodiy fantaziyasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda o'quvchilar, balki o'qituvchi uchun ham murakkab sanaladi. O'qituvchi o'quvchilarning fantaziyasini diqqat bilan tinglaydi, ular asosli bo'lishi, haqiqatga mos kelishini kuzatib boradi. Xatolarni ustalik bilan to'g'rilab borish, nima uchun shunday bo'lishi yoki bo'lmasligini tushuntirish, hikoyachi nutqini to'g'ri yo'naltirib turish o'quvchilarga ilhom va ishonch bag'ishlaydi.

Zamonaviy ta'lim o'quvchilarda bilishga, o'quv fanini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishni, motivatsiyani oshirish, ularda o'quv-bilish faolligini rivojlantirish borasida katta imkoniyatlarga egaligi sababli o'qitish jarayonini texnologik yondashuv asosida tashkil etish zaruriyati mavjud ekanligini ko'rsatmoqda.

Nazariy jihatdan "ta'lim texnologiyasi" tushunchasi "ta'lim maqsadiga erishish jarayonining umumiy mazmuni, ya'ni avvaldan loyihalashtirilgan ta'lim jarayonini yaxlit tizim asosida, bosqichma-bosqich amalga oshirish, aniq maqsadga erishish yo'lida muayyan metod, usul va vositalar tizimini ishlab chiqish, ulardan samarali, unumli foydalanish hamda ta'lim jarayonini yuqori darajada boshqarish" [6; 8-b.]ni ifodalaydi.

Yuqorida keltirilgan ta'rifdan anglanadiki, ta'lim texnologiyasining eng muhim xususiyati – aniq maqsad asosida alohida olingan o'qitish jarayonini avvaldan loyihalash, o'quv-bilish faoliyatiga oid barcha harakatlarni bosqichma-bosqich ifodalash, har bir o'quv-bilish harakati uchun mos va samarali bo'lgan shakl, metod va vositalarni to'g'ri tanlash, maqsadning natijalanishini kafolatlashdan iborat. Boshqacha aytganda, ta'lim texnologiyasi alohida olingan o'qitish jarayonining umumiy mohiyatini belgilovchi tuzilma bo'lib, o'qitish jarayonini izchil, tizimli, samarali tashkil etilishini ta'minlaydi.

Maktabda badiiy asar tili o'rganilayotganda, shakl bilan mazmunning birligiga qattiq amal qilish zarur. Buyuk so'z san'atkorlari inson, predmet yoki biron-bir hodisaning xususiy tomonlarini so'z yoki so'z birikmalari orqali shunday aniq tasvirlashga erishadilarki, o'quvchining ko'z o'ngida haligacha namoyon bo'lmagan yangi, oldingilaridan tubdan farq qiladigan harakatdagi jonli obraz gavdalanadi. O'qituvchi badiiy asar va undagi obrazlarni

o'rganish jarayonida so'z va so'z birikmalari vositasida aniq va yaqqol tasvirlangan ana shu yangi, oldingilaridan farq qiladigan jonli obrazlarni asar tilini o'rganish orqali o'quvchilarga tushuntiradi.

Yozuvchi o'zining dunyoqarashini, voqelikka bo'lgan munosabatini, nimani tanqid yoki targ'ib qilayotganligini obrazlar vositasi orqali yoritib beradi. Obrazlar esa so'z va so'z birikmalarining birikib, bir butun gap bo'lib, ma'lum bir ma'noni anglatishidan vujudga keladi.

Badiiy asar tilining emotsionalligi - tasvirlanayotgan shaxs, predmet yoki voqealarga mos so'z va iboralarning tanlab ishlatilishi - asarning g'oyaviy yo'nalishini ifodalashda muhim vazifani bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Matchonov S. va boshq. Boshlang'ich sinf o'qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish. – T.: Yangiyo'l poligraf servic, 2008. – 224 b.
2. Ибрагимов Р. Бошланғич мактаб ўқувчиларида билиш фаолиятини шакллантиришнинг дидактик асослари. Пед.фан.номз. дисс. – Т.: 2007. – 140 б.
3. Ганиева Б.И. Кутубхоналарда ўқувчилар ўқиш маданиятини тарбиялашнинг педагогик имкониятлари. Пед.фан.номз.дисс. –Т.:2008. –161 б.
4. Бобомуродова А.Я. Она тили таълими жараёнида ўйин топишмоқлардан фойдаланиш. Пед. фан. номз. дисс. автореф. – Т.: 1997. – 20 б.
5. Мирқосимова М. Ўқувчиларда адабий таҳлил малакасини шакллантириш ва такомиллаштириш асослари. Монография. – Т.: Фан, 2006. – 112 б.
6. Макулова Б. Бошланғич синфларда синфдан ташқари ўқишни ташкил этиш. Монография. – Т.: Низомий номидаги ТДПУ, 2006. – 95 б.
7. Галактионова Т.Г. Чтение школьников как социально-педагогический феномен открытого образования (теоретико-методические основы исследования): моногр. – СПб., 2007. – 124 с.